

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“RЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**SOLIQLARNING MAKROIQTISODIY
MUAMMOLARI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340802 – “Davlat soliqlari va yig'implari” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchi: i.f.n., Toshmurodova B. Tashqi
Taqrizchilar: i.f.n. A. Kamolov
i.f.n., dots. F.Bozorov

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturiga" va Oliy ta'limning davlat standartlariga asosan "Soliqlar va soliqqa tortish" mutaxassisligi bo'yicha "Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fani mutaxassislik fanlarining bir qismi sifatida o'qitiladi.

Ushbu fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida soliqlarning makroiqtisodiy muammolari, jumladan ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish, xalqaro standartlarga muvofiq soliq va yig'implarni unifikatsiya qilish, byudjet daromadlari tarkibida resurs va mulk soliqlarini ulushini optimallashtirish, byudjet daromadlarini shakllantirishda bevosita va bilvosita soliklar ulushini muvofiqlashtirish, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish va umuman soliq tizimini mukammallashtirish muammolari o'rganib chiqiladi.

На основе "Национальной программы по подготовке кадров" Республики Узбекистан и государственного стандарта Высшего образования по направлению "Налоги и налогообложение" дисциплина "Макроэкономические проблемы налогов" является предметом по специальности. В процессе обучения данной дисциплины раскрываются темы связанные с макроэкономическими проблемами налогов в целом. В настоящей программе изучаются темы по устранению двойного налогообложения, унификация налогов и сборов в соответствии с международными нормами и стандартами, оптимизация доли ресурсных и имущественных налогов в структуре доходов бюджета и в целом дальнейшее снижение налогового бремени на экономику.

Uzbekistan and state standard of Higher education on a direction " Taxes and the taxation " the discipline " Macroeconomic problems of taxes " is a subject on a speciality.

During training the given discipline themes connected with macroeconomic problems of taxes as a whole are opened. In the present program themes as, About avoidance double the taxation, unification of taxes and tax collections in conformity with the international norms and standards, optimization of a share of resource and property taxes in structure of incomes of the budget and as a whole the further decrease in tax burden on economy are studied.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'qitishning maqsadi va vazifalari

"Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fanini o'qitishdan asosiy maqsad, ta'lim olayotgan magistrantlarga hozirgi kunda soliq tizimida mavjud bo'lgan soliqqa tortishning makroiqtisodiy muammolari bilan tanishtirish, bu muammolarining yuzaga kelish sabablarini o'rgatish, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish, magistrantlarning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirishdan iborat. Mazkur fanning oldiga qo'yilgan vazifalari, asosan magistrantlarni moliya-soliq tizimida mavjud makroiqtisodiy soliq muammolarini atroflicha tahlil qilib ularni tugatish masalalari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

Fan bo'yicha magistrnlarning bilimiga, o'quv va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

"Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fani bo'yicha har bir talaba bilimini mustahkamlash uchun soliq siyosatini asoslari bilan kompleks ravishda tanishib va o'rganib borishlari zarur.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fani bir qator fanlar bilan uzviy bog'langan. Dastlab boshlang'ich bilim olish maqsadida "Soliq nazariyasi", "Moliya nazariyasi", "Iqtisodiy nazariya" fanlari bilan o'rganish, shuningdek "Soliq va soliqqa tortish", "Soliq munosabatlarini optimallashtirish", "Soliqqa tortish amaliyoti" "Buxgalteriya hisobi va audit", "Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi" fanlar bilan ham puxta o'rganilishi lozim. Amaliyotda harakat qilish doirasiga qarab bu fan "Iqtisodiy tahlil", "Informatsion texnologiyalar" hamda boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'langan.

Fanni o'qitishda yangi texnologiyalar

Fanni chuqur o'rganish maqsadida, "Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fanini har bir mavzusi bo'yicha nazariy va amaliy materillar to'liq beriladi. Shuningdek, mavzular bo'yicha tahliliy materiallar to'plangan va kompyuterdan keng foydalaniladi.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fani talabalar nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlagandan so'ng tegishli mutaxassislik fani sifatida tashkil etiladi. Dasturda quyidagi masalalar aniq eritib berilgan: fanning mohiyati va zarurligini aniq ochib berish uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning tuzilishi va umumiy hajmiga alohida e'tibor berish:

- fan bo'yicha ajratilgan maslahat soatlari orqali amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, qo'shimcha va o'zgarishlarni tushuntirish hamda talabalarning bilim darajasini yanada mustahkamlashni ko'zda tutilishi;
- hozirgi vaziyatdan kelib chiqib talabalarning amaldagi holat bilan aloqasini kengaytirish va mustaqil o'rganish uchun mavzular bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berilishi.

2. FAN DASTURI

Fanning mazmuni

"Soliqlarning makroiqtisodiy muammolari" fanini o'rganish uchun 2 qismga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga bo'lamiz. Ma'ruza mashg'ulotlari asosan o'rganiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumotlarga asoslanadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalar yuzasidan erkin fikrlarga asoslanadi. Bundan tashqari mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar va tegishli yo'riqnomalar tanishtiriladi.

Ma'ruza mavzulari

Makroiqtisodiy siyosat va uni barqarorlashtirishda soliq-byudjet siyosatining o'rni

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi. Makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari barqarorlashtirish dasturini asosiy yo'nalishlari. Asosiy makroiqtisodiy vositalar va makroiqtisodiy barqarorlashtirishning chora-tadbirlari sifatida soliq siyosati. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish va mukammal soliq siyosatini yuritishning bog'liqligi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish muammolari

Soliq tizimini rivojlanishi va shakllanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tashkil etilishi, rivojlanishi va shakllanish bosqichlari. Soliklar, yig'imlar va byudjetdan tashqari fonlarga majburiy ajratmalar tarkibi va strukturasi muvofiqlashtirish masalalari. Bevosita va bilvosita soliqlar strukturasi muvofiqlashtirish muammolari. Soliq va yig'imlarning yalpi ichki maxsulotni taqsimlashdagi ulushini jahon andozalariga muvofiqlashtirish masalalari.

Iqtisodiyot sohaslarida soliq yukini optimal taqsimlash muammolari

Makroiqtisodiy ko'rsatgichlar darajasiga soliq yuki darajasi ta'sirini bog'liqligini taxlil etish. Soliq yuki darajasini to'g'ri aniqlash va unga iqtisodiy baxo berish bilan bog'liq muammolar. Iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukini taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish masalalari. Iqtisodiyotda soliq og'irligini kamaytirish yo'nalishlarini ishlab chiqish muammolari.

Soliq tizimida soliq stavkalarini tabaqalashtirish muammolari

Soliq tizimida to'g'ri soliqlarni stavkalarini to'g'ri belgilash muammolari. Yuridik shaxslar daromad solig'i stavkalarini tabaqalashtirish muammolari. Soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini tabaqalashtirish muammolari. Aktsiz solig'i stavkalarini to'g'ri belgilash muammolari. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri va egri soliq stavkalarini ta'siri va ularni optimallashtirish masalalari.

O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishni tashkil etish muammolari

Soliq tizimida soliq imtiyozlarining turlari va ularni taqdim etish mezonlari. Umumdavlat va mahalliy soliqlar undirilish jarayonini muvofiqlashtirishda taqdim etiladigan imtiyozlarning zarurligi hamda byudjet daromadlarini shakllantirishda ularni ta'siri. Soliq imtiyozlari samarasini tashkil etish bilan bog'liq muammolar. Soliq imtiyozlarining ishlashiga aks ta'sir etuvchi omillar taxlili va ularni bartaraf etish imkoniyatlari.

Davlat boshqaruvining turli darajalari o'rtasidagi soliq-byudjet munosabatlari

Turli darajalardagi byudjetlarning o'zaro aloqa mexanizmini qaror topish jarayoni. Har bir xududning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning miqdoriy ifodasi. Byudjetlararo munosabatlar mexanizmini takomillashtirish va mahalliy byudjetlar daromadlar salmog'ini oshirish. Mahalliy soliqlarning ilmiy asoslangan stavkalarini ishlab chiqish va ularning ulushini ko'paytirish. Mahalliy byudjet va respublika byudjetlarining shakllanishi jarayonini bozor munosabatlari sharoitiga muvofiqlashtirish masalalari.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi strukturasi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlariga muvofiq soliq tizimini takomillashtirish. Mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlarning rolini oshirish hisobiga shakllantirishni to'g'ri tashkil etish. Umumdavlat va mahalliy soliqlarni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini muvofiqlashtirish. Soddalashtirilgan soliq tizimini tashkillashtirish xususiyatlari. Qishloq xo'jaligini korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolar. Savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlarini soliqqa tortishdagi mavjud muammolar.

Soliq mexanizmi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimida ularning o'rni

Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat va bozor mexanizmi. Soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish tizimi. Soliklar vositasida iqtisodiyotni tartiblash usullaridan foydalanish samarasini oshirish yo'llari. Soliqlar vositasida iqtisodiy tsikl tebranishlarini yumshatish; iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish; bandlikning yuksak darajasiga erishish; inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish. Diskretsonal fiskal siyosati va nodiskretsonal fiskal siyosat. Davlat tomonidan yuritiladigan soliq siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri turli iqtisodiy tuzumdagi davlatlar misolida baxolash.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni soliqlar vositasida tartibga solish

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi va ularni turlari. Iqtisodiy aloqalarni rivojlanishini soliqlar vositasida tartibga solishni kuchaytirish. Xalqaro standart va normalarga muvofiq soliq va yig'implarni birxillashtirish masalalari va bunda xar bir davlat iqtisodiy xolatidan kelib chiqish masalalari. Soliqqa tortish bo'yicha xalqaro shartnomalarni mukammallashtirish masalalari.

Soliq tizimini rivojlantirishda soliq organlarining rolini oshirish masalalari

Soliq xizmati idoralarining shakllanish bosqichlari hamda soliq to'lovchilarni hisobga olish. Soliq xizmati idoralarining rivojlanishi va soliq nazoratini shakllarini mukammallashtirish masalalari.

Soliq xizmati organlarining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiyat va vazifalari. Soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar tartibi va ularning turlari. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun soliq idoralari tomonidan qo'llaniladigan jazolarni mukammallashtirish byu bilan bog'liq muammolar. Soliq to'lash madaniyatini oshirishda soliq organlarining rolini oshirish masalalari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

Makroiqtisodiy siyosat va uni barqarorlashtirishda soliq-byudjet siyosatining o'rni

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi. Makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari barqarorlashtirish dasturini asosiy yo'nalishlari. Asosiy makroiqtisodiy vositalar va makroiqtisodiy barqarorlashtirishning chora-tadbirlari sifatida soliq siyosati. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish va mukammal soliq siyosatini yuritishning bog'liqligi.*

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish muammolari*

Soliq tizimini rivojlanishi va shakllanish bosqichlari.. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tashkil etilishi, rivojlanishi va shakllanish bosqichlari. Soliklar, yig'imlar va byudjetdan tashqari fonlarga majburiy ajratmalar tarkibi va strukturasi muvofiqlashtirish masalalari. Bevosita va bilvosita soliqlar strukturasi muvofiqlashtirish muammolari. Soliq va yig'imlarning yalpi ichki maxsulotni taqsimlashdagi ulushini jahon andozalariga muvofiqlashtirish masalalari.

Iqtisodiyot sohasida soliq yukini optimal taqsimlash muammolari

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar darajasiga soliq yuki darajasi ta'sirini bog'liqligini taxlil etish.* Soliq yuki darajasini to'g'ri aniqlash va unga iqtisodiy baxo berish bilan bog'liq muammolar. Iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukini taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish masalalari. Iqtisodiyotda soliq og'irligini kamaytirish yo'nalishlarini ishlab chiqish muammolari.*

Soliq tizimida soliq stavkalarini tabaqalashtirish muammolari

Soliq tizimida to'g'ri soliqlarni stavkalarini to'g'ri belgilash muammolari. Yuridik shaxslar daromad solig'i stavkalarini tabaqalashtirish muammolari. Soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini tabaqalashtirish muammolari. Aktsiz solig'i stavkalarini to'g'ri belgilash muammolari. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri va egri soliq stavkalarini ta'siri va ularni optimallashtirish masalalari.*

O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishni tashkil etish muammolari*

Soliq tizimida soliq imtiyozlarining turlari va ularni taqdim etish mezonlari. Umumdavlat va mahalliy soliqlar undirilish jarayonini muvofiqlashtirishda taqdim etiladigan imtiyozlarning zarurligi hamda byudjet daromadlarini shakllantirishda ularni ta'siri. Solik imtiyozlari samarasini tashkil etish bilan bog'liq muammolar. Soliq imtiyozlarining ishlashiga aks ta'sir etuvchi omillar taxlili va ularni bartaraf etish imkoniyatlari.

Davlat boshqaruvining turli darajalari o'rtasidagi soliq-byudjet munosabatlari

Turli darajalardagi byudjetlarning o'zaro aloqa mexanizmini qaror topish jarayoni. Har bir xududning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning miqdoriy ifodasi. Byudjetlararo munosabatlar mexanizmini takomillashtirish va mahalliy byudjetlar daromadlar salmog'ini oshirish. Mahalliy soliqlarning ilmiy asoslangan stavkalarini ishlab chiqish va ularning ulushini ko'paytirish. Mahalliy byudjet va respublika byudjetlarining shakllanishi jarayonini bozor munosabatlari sharoitiga muvofiqlashtirish masalalari.*

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi strukturasi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.* Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlariga muvofiq soliq tizimini takomillashtirish. Mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlarning rolini oshirish hisobiga shakllantirishni to'g'ri tashkil etish. Umumdavlat va mahalliy soliqlarni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini muvofiqlashtirish. Soddalashtirilgan soliq tizimini tashkillashtirish xususiyatlari. Qishloq xo'jaligini korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolar.* Savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlarini soliqqa tortishdagi mavjud muammolar.*

Soliq mexanizmi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimida ularning o'rni

Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat va bozor mexanizmi. Soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish tizimi. Soliklar vositasida iqtisodiyotni tartiblash usullaridan foydalanish samarasini oshirish yo'llari.* Soliqlar vositasida iqtisodiy tsikl tebranishlarini yumshatish; iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish; bandlikning yuksak darajasiga erishish; inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish. Diskretsonal fiskal siyosati va nodiskretsonal fiskal siyosat. Davlat tomonidan yuritiladigan soliq siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri turli iqtisodiy tuzumdagi davlatlar misolida baxolash.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni soliqlar vositasida tartibga solish

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi va ularni turlari. Iqtisodiy aloqalarni rivojlanishini soliqlar vositasida tartibga solishni kuchaytirish.* Xalqaro standart va normalarga muvofiq soliq va yig'imlarni birlashtirish masalalari va bunda xar bir davlat iqtisodiy xolatidan kelib chiqish masalalari. Soliqqa tortish bo'yicha xalqaro shartnomalarni mukammallashtirish masalalari.*

Soliq tizimini rivojlantirishda soliq organlarining rolini oshirish masalalari*

Soliq xizmati idoralarining shakllanish bosqichlari hamda soliq to'lovchilarni hisobga olish. Soliq xizmati idoralarining rivojlanishi va soliq nazoratini shakllarini mukammallashtirish masalalari.

Soliq xizmati organlarining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiyat va vazifalari. Soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar tartibi va ularning turlari. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun soliq idoralari tomonidan qo'llaniladigan jazolarni mukammallashtirish byu bilan bog'liq muammolar. Soliq to'lash madaniyatini oshirishda soliq organlarining rolini oshirish masalalari.

4. INFORMATsION TEXNIK VOSITALAR

Bu fanni o'qitishda zamonaviy texnik vositalardan, kompyuter va aloqa vositalardan va boshqa informatsion texnik vositalardan foydalanish belgilangan.

1. Kompyuter;
2. Audio va video jixozlar;
3. Diaproektor;
4. Kodoskop;
5. Grafoproektor;
6. Statistika ma'lumotlar;
7. Kalkulyator va boshqa apparaturalar.

5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talablarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorda belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB tinglovchi "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Bu fan o'qitish soatlari 1-kurs magistrantlari uchun 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulot, 20 soat mustaqil ta'lim qilib belgilangan.

Tayanch tushunchalariga asoslangan (yozma ish) usulini o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qitayotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (qarzdor) deb hisoblanadi.

Demak, oraliq baholashda 1-kurslar uchun eng yuqori ball 14,0 ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 7,7 balldan - 14,0 ballgacha to'plashi mumkin. Joriy baholashda ham eng yuqori ball 14,0 ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 7,7 balldan - 14,0 ballgacha to'plashi mumkin. Yakuniy baholashda esa yuqori ball 12,0 ni tashkil etib, magistrant ushbu ballning 55%idan - 100%igacha oralig'ida ya'ni, 6,6 balldan - 12,0 ballgacha to'plashi mumkin.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 - "a'lo";
- 71 - 85 - "yaxshi";
- 55 - 70 - "qoniqarli".

6. ADABIYOtlAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T. 6. -T.: O'zbekiston, 1998 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997 yil.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi". -T.: O'zbekiston 1997 yil 21 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. -T.: O'zbekiston 1997 yil 29 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy qonunlar". -T.: O'zbekiston 1997 yil. 9-son.
7. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil uchun ijtimoiy - iqtisodiy ko'rsatkichlari. Statistik tuplam. -T., 2001 yil.
8. Brizgalin, A. V. Nalogovie spori, 1997-1998 g.
9. Tolstopyatenko G.P., Fedotova I.G. Nalogovoe prava SShA terminologiya. Chebnoe posobie. "ANKIL". -M.: 1996.
10. Toshmurodova . B.E. "Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi", "Yangi asr avlodi", T., 2002 yil.
11. Gadoev E.F. i dr. "Nalogi v Respublike Uzbekistan" v 1997 g.: Metodicheskoe posobie. 2-e izd., dop. i pererab. -T.: Izdatelskiy dom "Mir ekonomiki i prava", 1997.
12. Chernik D.G., Pochinok A.P., Morozov V.P. Osnovi nalogovoy sistemi: Uchebnoe posobie dlya vuzov. /Pod. red. D.G. Chernika. -M.:Finansi, YuNITI, 1998.
13. Abdullaev Yo., Yahyoev Q. "Soliq" yuz savolga 100 javob. T.; "Mexnat" - 1997 y.
14. Yahyoev Q. "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti", Darslik, Toshkent, 2000 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Nalogi i nalogovoe planirovanie v mirovoy ekonomike: Ucheb.posobie /Sutirin S.F., Pogorletskiy A.I.; S.-Peterb. Gos. Un-t. Kaf. Mirovoy ekonomiki. -SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A.: Polius, 1998. - 577s.
2. Government Finance Statistics Yearbook 2000. Pg-5.
3. Government Finance Statistics Yearbook 1993, 1999 y.
4. J.S. Mon Nobes. The Economics of Taxation. Third Edition. - Oxford ect. 1993.